C)	Metonimiya
D)	Sinekdoxa
70.	Fikrning so`roq tarzida tasdiqlanishi?
A)	Ritorik so`roq
B)	Ritorik murojaat
C)	Ritorik undov
D)	Tajohuli orif
71.	She'riy yoki prozaik nutqda bir xil(yoki ma'nosi yaqin) so`z yoki iborani ketma-ket qo`llash orqali ma'honi kuchaytiradigan stilistik figura, gradatsiyaning bir turi?
A)	Gradatsiya
B)	Antiklimaks
C)	Klimaks
D)	Ruju'
72.	Gap bo`laklarining grammatik normadan tashqari tartibda qo`llanishiga asoslangan stilistik usul?
A)	Inversiya
B)	Tmezis
C)	Xiazm
D)	Gradatsiya
73.	Bo`rttirilgan narsani tasavvur qilish ham qiyin bo`lgan mubolag`a turi?

A)	G`uluvv
B)	Ig`roq
C)	Intoq
D)	Giperbola
74.	Avtori ma'lum bo`lgan, chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli gap?
A)	Aforizm
B)	Hikmat
C)	Idioma
D)	Maqol
75.	Quyidagi parchada qanday tasvir vositasi qo`llangan: Ikki daryo oralig`ida, Haq adolat topmadi qaror...
A)	Metonimiya
B)	Sinekdoxa
C)	Metafora
D)	Perifraz
76.	Quyidagi parchada qaysi stilistik figura qo`llangan: Yana ko`nglimda erka bir shodlik, Yana tilimda sevgili she'rim, Yana to ichimdan tomchilar sukdor...
A)	Anafora
B)	Ellipsis
C)	Gradatsiya
D)	Epifora
77.	Badiiy adabiyotda g`oyaviy-badiiy jihatdan yangilik yaratish?
A)	Novatorlik
B)	Ijod
C)	Kashfiyot
D)	Vorisiylik
78.	"Dag`allashdim - salga jahlim chiqadi, Injalashdim - salga quvonchim dunyo..."- misralarida qanday stilistik figura bor?
A)	Ellipsis
B)	Oksyumoron
C)	Klimaks
D)	Emfaza
79.	"Astagina baqirar rubob...", "Uyqudan uyg`onsin uyqular..." satrlarida qanday badiiy tasvir vositasi bor?
A)	Oksyumoron
B)	Tazod
C)	Perifraz
D)	Kontrast
80.	Ko`p chizikli sujet asosiga qurilgan hikoya qaysi?
A)	Hikoyada ko`p chizikli sujet bo`lmaydi
B)	"O`g`ri", "Dahshat"
C)	"Bodom qishda gulladi"
D)	"Urushning so`nggi qurboni"
81.	Sujetni biriktiruvchi komponentlar qaysilar?

A)	Tugun, voqea rivoji, kulminatsiya
B)	Prolog, epilog
C)	Tugun, kulminatsiya
D)	Ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji
82.	Opera yoki operetta uchun yozilgan badiiy asar teksti
A)	Libretto
B)	Ssenariy
C)	Vodevil
D)	Monodrama
83.	7 misradan tarkib topuvchi band?
A)	Musabba'
B)	Musammas
C)	Musaddas
D)	Muashshar
84.	Fors-tojik adabiyotida "lug`z" deb ataladigan janr o`zbek she'riyatida "nima u"?
A)	Chiston
B)	Muammo
C)	Vasf
D)	Lug`z
85.	Mumtoz adabiyotimizdagi falsafiy-didaktik asarlarda, badiiy nasrda ko`pincha "qissadan hissa" tarzida keltiriladigan lirik janr?
A)	Qit'a
B)	Tarona
C)	Ruboiy
D)	Masnaviy
86.	Hajmi 12 baytdan kam bo`lmasligi kerak bo`lgan janr?
A)	Qasida
B)	G`azal
C)	Masnaviy
D)	Soqiynoma
87.	Masnaviy shaklida qofiyalangan katta hajmli, biror masalaga bag`ishlanganligi bilan voqeband asarga o`xshab ketuvchi, murojaat bilan boshlanuvchi janr?
A)	Soqiynoma
B)	Tarje'band
C)	Tarkibband
D)	Masnaviy
88.	G`azali mulamma' yana qanday nomlanadi?
A)	Shiru shakar
B)	Tatabbu
C)	Tazmin
D)	Manzuma
89.	Qo`shmatla'li g`azal qanday nomlanadi?
A)	G`azali zeb matla'
B)	G`azali zebqofiya
C)	G`azali zulmatla'yn
D)	G`azali zulqofiyatayn

90.	"Hoki taning barbod o`lur oxir jahonda necha yil, Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina",- baytida qanday she'riy san'at bor?
A)	Tashbeh
B)	Mubolag`a
C)	Tazod
D)	Tadrij
91.	"Sonetlar guldastasi"ning oxirgi soneti nima deb ataladi?
A)	Magistral
B)	Tezis
C)	Tema
D)	Final
92.	Besh hijoli ruknlar qaysilar?
A)	Mafoilatun, Mutafoilun
B)	Mafoilatun, mafoiylun
C)	Mustaf'iylun, mafoilatun
D)	Mutaqorib, Mutafoilun
93.	"Foilotun" ruknining takroridan yuzaga keluvchi bahr?
A)	Ramal
B)	Komil
C)	Rajaz
D)	Hazaj
94.	Quyidagi taqte qaysi ruknga xos: v - -
A)	faulun
B)	maf'uvlun
C)	mafoiylun
D)	foilun
95.	O`zbek g`azalchiligida eng ko`p qo`llanilgan bahr?
A)	Ramal
B)	Mafoiylun
C)	Mutafoilun
D)	Rajaz
96.	Baytning birinchi misrasida 2 ta mafoiylun bo`lib, uchinchisining "burni kesilgan" o`lchov qanday nomlanadi?
A)	Hazaji musaddasi axram
B)	Hazaji musaddasi solim
C)	Hazaji musammani maqsur
D)	Hazaji musaddasi mahzuf
97.	Baytda 7 ta rukn ishtirok etsa, qanday o`lchov bo`ladi?
A)	Bunday o`lchov yo`q
B)	Musabba'
C)	Musaddas
D)	Mutassa
98.	Bir cho`ziq bo`g`in (bir harakatli va bir sokin)dan iborat juzv?
A)	Sababi hafif
B)	Vatadi majmu'
C)	Sababi saqiyl

D)	Vatadi mafruq
99.	Bolalar she'riyatida keng qo'llanuvchi she'r vaznlari?
A)	Barmoqning qisqa vaznlari
B)	Aruzning yengil bahrlari
C)	Yetti bo`g`inli barmoq
D)	To`qqiz bo`g`inli barmoq
100.	Bandni yuzaga keltirishda muhim rol o`ynovchi vosita?
A)	Qofiyalanish tartibi
B)	Qofiya
C)	Misralar soni
D)	Vazn
101.	Bo`g`inlarning sonigagina asoslangan she'r tizimi?
A)	Sillabik
B)	Antik she'r
C)	Aktsentli she'r
D)	Sarbast
102.	Klassik adabiyotimizda she'riy maktublar yozishda qaysi shakldan foydalanilgan?
A)	Masnaviy
B)	Qasida
C)	Qit'a
D)	Munshaot
103.	Misra yoki bandning chegarasini, oxiriga etganini bildiruvchi vosita?
A)	Ritmik urg`u
B)	Radif
C)	Tinish belgisi
D)	Qofiya sistemasi
104.	She'rdagi bir so`zdan ikki ma'no anglashilishi va har ikki holda ham umumiy ma'noga putur etmasligi sharti bajarilganda yuzaga keluvchi san'at?
A)	Iyhom
B)	Tajnis
C)	Ta'sis
D)	Talmeh
105.	G`azalning har baytiga bir maqol kiritish san'ati:
A)	Irsol-ul masal
B)	Iqtibos
C)	Tatabbu
D)	Nazira
106.	"Turmaklash va yozish" ma'nosini o`zida jam etuvchi she'riy san'at?
A)	Laff va nashr
B)	Husni ta'lil
C)	Tajohul-ul orif
D)	Tajnisi tom
107.	Hozirgi adabiyotshunoslikdagi alliteratsiya termini mumtoz adabiyotshunosligimizda qanday nomlangan?
A)	Tavzi'
B)	Tarse'

C)	Takrir
D)	Tahmis
108.	Erkin she'rning Yevropa adabiyotshunosligidagi nomlanishi?
A)	Verlibr
B)	Elegik she'r
C)	Yamblar
D)	Rapsod
109.	Hikoya, qissa, roman janrlari nimaning asosida farqlanadi?
A)	Hayotni qamrash ko`lami
B)	Obrazlar soni
C)	Mazmun boyligi
D)	Hajmi
110.	Dramatik asardagi avtor izohi:
A)	Remarka
B)	Akt
C)	Kirish so`z
D)	Izohlar
111.	Hayotdagi real shaxslar taqdiri, haqiqatda bo`lib o`tgan voqealarni badiiy aks ettiruvchi janr?
A)	Ocherk
B)	Hikoya
C)	Novella
D)	Realizm
112.	Klassitsizm nazariyotchilari dramatik asar oldiga qo`ygan asosiy talab?
A)	Uch birlik
B)	Tugallanganlik
C)	Ko`tarinkilik
D)	Ramziylik
113.	Dramatik asarning nisbiy mustaqillikka ega bo`lgan eng kichik bo`linishi?
A)	Parda
B)	Ko`rinish
C)	Akt
D)	Remarka
114.	Klassik she'riyatimizda uch misrali band nomi?
A)	Musallas
B)	Masnaviy
C)	Musallam
D)	Musallo
115.	She'riy misralardagi so`zlarning bir-biriga vazndosh va qofiyadosh bo`lishiga asoslangan san'at?
A)	Tarse'
B)	Tavzi'
C)	Tanosib
D)	Tashxis
116.	She'riy yoki prozaik nutqda bir xil so`z yoki iborani ketma-ket qo`llash orqali ma'noni kuchaytiradigan stilistik figura, gradatsiyaning bir turi?
A)	Klimaks
B)	Antiklimaks

C)	Gradatsiya
D)	Ruju'
117.	Gap bo`laklarining grammatik normadan tashqari tartibda qo`llanishiga asoslangan stilistik usul?
A)	Inversiya
B)	Tmezis
C)	Xiazm
D)	Gradatsiya
118.	Bandlari yetti misradan tarkib topgan klassik she'riyatimizdagi lirik janr?
A)	Musabba'
B)	Mutassa
C)	Muashshar
D)	Masnaviy
119.	Javoblarning qaysisida mumtoz adabiyotimizga xos she'r tuzilishi (band)ni anglatadigan atama ko`rsatilgan?
A)	Masnaviy
B)	Sonet
C)	Epigrama
D)	Saj'
120.	Mavzusi, g`oyasi, asosiy qahramonlari, sujet aloqadorligi bilan bir butunlikni tashkil etuvchi uch mustaqil asar qanday nomlanadi?
A)	Trilogiya
B)	Epopeya
C)	Dilogiya
D)	Tetralogiya
121.	Alisher Navoiy o`z dostonlarini qanday she'riy shaklda yozgan?
A)	Masnaviy
B)	Muxammas
C)	Musaddas
D)	Bayt
122.	«Hayratul-abror» dostonidagi quyidagi baytda qanday badiiy san'at qo`llangan? Buxi erur borcha saxovatdin xasis, Lek saxo javhari asru nafis.
A)	Tazod
B)	Tajnis
C)	Tashbeh
D)	Talmeh
123.	Quyidagi baytlarda qo`llangan badiiy-tasviriy usul qaysi javobda ko`rsatilgan? Mirzo Bobur – sen, fig`oning Soldi olam uzra o`t. Shoh Mashrab qoni senda, Urdu tug`yon o`zbekim.
A)	Talmeh
B)	Tajnis
C)	Tazod
D)	Noma
124.	Mumtoz adabiyotda qaysi lirik janr «dubaytiy» atamasi bilan ham yuritiladi?

A)	Ruboiy
B)	Tuyuq
C)	Fard
D)	Qit'a
125.	Afsona va rivoyatlardan qaysi janrlarda foydalanib bo`lmaydi?
A)	Fard, chiston
B)	Esse, badiia
C)	Doston, qissa
D)	Roman, masnaviy
126.	Qaysi janrdagi asarlarda dialog va monologlar uchramaydi?
A)	Tuyuq
B)	Doston
C)	Roman
D)	Masnaviy
127.	Bir oh ila kul bo`ldum, ey, charx, tilab topib, Farhod ila Majnung`a oshiqlik ishin o`rgat. (Navoiy) Mazkur baytda qanday badiiy san'at qo`llangan?
A)	Tahmeh
B)	Tanosib
C)	Tazod
D)	Tashbeh
128.	Kayxisrav qilichidan kesikbosh bobom hoki, Kim noxos oyoq qo`ysa, haqoratga yo`yaman. "Bu – men tug`ilgan tuproq" she'ridagi mazkur misralarda Mirtemir qanday badiiy san'at qo`llagan?
A)	Talmeh
B)	Ishtiyoq
C)	Tashxis
D)	Tajnis
129.	Epik turga mansub bo`lmagan janrni ko`rsating?
A)	Qo`shiq
B)	Hikoya
C)	Roman
D)	Ertak
130.	Javoblarning qaysi birida husni ta'lil san'ati qo`llangan bayt berilgan?
A)	Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizordi gul uyatdan anjumanda
B)	Ko`ngul olding, begim, yoshurmog`ing ne, Jafoni haddidan oshurmog`ing ne?
C)	Haq ul kunkim jamoling bor etibdud, Jahon husnin borin sizga beribdud
D)	Kecha kelgumdur debon, ul sarvi gulro` kelmadi, Ko`zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi
131.	Misralar miqdori va qofiyalanish tartibi jihatidan qaysi janrlar bir xil?
A)	Tuyuq, ruboiy
B)	Murabba', chiston
C)	G`azal, qit'a
D)	Muxammas, musaddas
132.	Rozimasman bir yosh tomsa ko`zimdan, Rozimasman sal rang ketsa yuzimdan,



	Yo'l yursamu, sal yashashdan adashsam, Rozimasman unda tamom o`zimdand. (H.Olimjon). Qaysi javobda ushbu misralardagi raviylar to`g`ri ko`rsatilgan?
A)	«Ko`zimdand – yuzimdand – o`zimdand» so`zlaridagi z tovushi
B)	«Tomsa-ketsa» so`zlari
C)	«Ko`zimdand – yuzimdand – o`zimdand» so`zlaridagi –im qo`shimchasi
D)	«Ko`zimdand – yuzimdand – o`zimdand» so`zlaridagi –dand qo`shimchasi
133.	Badiiy asarda o`zaro bir-biri bilan bog`langan va rivojlanib boruvchi voqealar tizimiga nima deyiladi?
A)	Sujet
B)	Yechim
C)	Epilog
D)	Tugun
134.	Narsa-hodisani, harakat-holatni kuchaytirib tasvirlash san'ati qanday nomlanadi?
A)	Mubolag`a
B)	Talmeh
C)	Ishtiyoq
D)	Tashxis
135.	Asosan she'riy misralar yoki bayt oxiridagi ohangdosh so`zlar qanday nomlanadi?
A)	Qofiya
B)	Talmeh
C)	Radif
D)	Tamsil
136.	Ko`ngli tilagan murodiga yetsa kishi, Yo barcha murodlarini tark etsa kishi, Bu ikki ish muassar bo`lmasa olamda, Boshini olib bir soriga ketsa kishi. Mazkur to`rtlik qaysi janrga mansub?
A)	Ruboiy
B)	Tuyuq
C)	Masal
D)	G`azal
137.	Yaralangan yer shari yotar, Boshlarida yashil chambarak. Mazkur misralarda qanday badiiy san'at qo`llangan?
A)	Tashxis
B)	Iyhom
C)	Tarse'
D)	Ishtiyoq
138.	Badiiy asar qahramonlarining o`z-o`ziga yoki o`zgalarga qaratilgan nutqi nima deyiladi?
A)	Monolog
B)	Dialog
C)	Murojaat
D)	So`ngso`z
139.	Seni jindak xushvaqt qilgani, Seni jindak xushbaxt qilgani. «Onaginam» (Mirtemir) she'ridan keltirilgan mazkur misralarda qanday badiiy san'at qo`llangan?
A)	Tarse'

B)	Tashxis
C)	Iyhom
D)	Tazod
140.	Tajnisni qofiya qilib keltirish asosida qaysi janr yaratiladi?
A)	Tuyuq
B)	Ruboiy
C)	Qit'a
D)	Fard
141.	Mumtoz adabiyotda boshqa bir shoir she'ridan bir misra yohud bir baytni olib, shu vaznda she'r yozish nima deb ataladi?
A)	Tazmin
B)	Ta'lif
C)	Tatabbu'
D)	O`xshatma
142.	Raviy nima?
A)	Qofiyani tashkil etgan oxirgi tovush
B)	Qofiyadan keyin kelgan tovush
C)	Qofiyadan oldin kelgan tovush
D)	Qofiyani tashkil etgan birinchi tovush
143.	Aruz she'r tizimida «foilotun» qaysi bahrning rukni (turog`i) hisoblanadi?
A)	Ramal
B)	Rajaz
C)	Hazaj
D)	Mutaqorib
144.	Quyidagi janrlardan qaysilari bir turga mansub?
A)	Drama, tragediya, komediya
B)	Drama, hikoya, doston
C)	Komediya, ertak, qissa
D)	Roman, she'r, komediya
145.	Bandlari 8 misradan tashkil topgan she'r nima deb ataladi?
A)	Musamman
B)	Musaddas
C)	Murabba'
D)	Muxammas
146.	Badiiy adabiyotning badiiy kontseptual funktsiyasi deganda nima nazarda tutiladi?
A)	Jamiyatning joriy holatini badiiy tahlil qilishi, tahlil asosida yaxlit bir badiiy hukm ifodalashi
B)	Baholashi
C)	Jamiyatning joriy holatini badiiy tahlil qilishi
D)	Tahlil asosida yaxlit bir badiiy hukm ifodalashi
147.	Badiiy adabiyotning estetik funktsiyasi deganda nima nazarda tutiladi?
A)	Go`zallik tuyg`usini rivojlantirishi, badiiy didni tarbiyalashi
B)	Borliqni go`zal qilib tasvirlashi
C)	Go`zallik tuyg`usini rivojlantirishi
D)	Badiiy didni tarbiyalashi
148.	... adabiyot va san'atning fikrlash shaklidir?
A)	Badiiy obraz

B)	So`z
C)	Obraz
D)	Nutq
149.	... narsa hodisalarning umumiy xususiyatlariga tayanib umumlashmalar chiqarsa, ... konkret faktni individual tasvirlash orqali umumlashmaga intiladi?
A)	San'at, fan
B)	San'atkor, nosir
C)	Fan, san'at
D)	Mif, adabiyot
150.	Qahramon ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so`zlari, yuz-ko`z ifodalari, undagi fiziologik o`zgarishlarni ko`rsatish orqali ochib berilishi .... psixologik tasvirdir?
A)	Bilvosita
B)	Bevosita va bilvosita
C)	To`g`ridan to`g`ri
D)	Dinamik
151.	Personaj o`y-kechinmalari, his-tuyg`ularining "ichki monolog", "ong oqimi" tarzida yoki muallif tilidan bayon qilinishi ... psixologik tasvirdir?
A)	Bevosita
B)	Bilvosita
C)	To`g`ridan to`g`ri
D)	Bavosita
152.	Badiiy asardagi narsa buyumlar obrazi, portret, peyzaj, tafsilotlar ... sanaladi va ular o`zlarining ... holatdaligi bilan xarakterlanadi?
A)	Detal obraz ... Statik
B)	Xarakter va sharoit ... Dinamik
C)	Dunyo va taqdir ... Umumlashma
D)	Detal obraz ... dinamik
153.	Umumlashtirish darajasiga ko`ra badiiy obrazning ... kabi turlari ajratiladi?
A)	Motiv, topos, arxetip
B)	Individual, xarakter, tipik
C)	Yakka, umumiy, tipik
D)	Individual, xarakter va sharoit
154.	Badiiy obrazning .... deb yuritiluvchi ko`rinishlari adabiy-madaniy an'anaga ko`ra muayyan turg`un shaklga aylanib, asardan asarga ko`chib yurish xususiyatiga ega?
A)	Motiv, topos, arxetip
B)	Detal, fabula, xarakter va sharoit
C)	Xarakter, tip
D)	Individual, xarakter, tipik
155.	Fabula so`zi adabiyotshunoslikda qaysi ma'noda qo`llaniladi?
A)	Asar voqealarining hayotda yuz berish tartibi
B)	Syujet voqealarining asarda joylashtirilish tartibi
C)	Konfliktga sinonim sifatida
D)	Kompozitsiyaga sinonim sifatida
156.	Syujetdan tashqari unsurlarni belgilang?
A)	Prolog
B)	Tugun
C)	Yechim

D)	Kulminatsiya
157.	Quyidagi parchada qo`llangan badiiy tasvir va ifoda vositalarini aniqlang? Maysalar, tovonim sizni sog`inar, Tog`lar, viqoringiz qalbimda mangu.
A)	Ritorik murojaat, sinekdoxa
B)	Metonimiya
C)	Sinekdoxa
D)	Ritorik murojaat
158.	Avtori ma'lum bo`lgan, chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli gap?
A)	Aforizm
B)	Hikmat
C)	Idioma
D)	Maqol
159.	Bo`rttirilgan narsani tasavvur qilish ham qiyin bo`lgan mubolag`a turi?
A)	G`uluv
B)	Intoq
C)	Giperbola
D)	Ig`roq
160.	Fikrning so`roq tarzida tasdiqlanishi?
A)	Ritorik so`roq
B)	Ritorik murojaat
C)	Ritorik undov
D)	Tajohuli orif
161.	Shakl hodisalarini aniqlang?
A)	Janr, she'r tuzilishi, tendensiya, kompozitsiya
B)	Til, ritm, konflikt, kompozitsiya
C)	G`oya, mavzu, til, she'r, janr
D)	Syujet, tugun, mavzu, janr, goya.
162.	Konflikt bilan sujet o`rtasida qanday bog`liqlik bor?
A)	Konflikt – sujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch
B)	Konflikt asar qahramonlari bilan muallif o`rtasidagi jiddiy kurash
C)	Sujet tashqi ko`rinishi, konflikt uning ichki oqimidir
D)	Konflikt mazmuniy va ichki ko`rinish
163.	Aruz she'r sistemasining o`ziga xos xususiyati nima?
A)	Cho`ziq va qisqa hijolarning ma'lum tartibda kelishi
B)	Bo`g`in va turoqlarning o`ziga xos tartibda takrorlanishi
C)	Misralardagi bo`g`inlar va turoqlarning miqdori chegaralangan holda bo`lishi
D)	Aruzda ko`proq intonatsiyaga e'tibor beriladi
164.	Adabiy yo`nalislar to`g`ri ko`rsatilgan qatorni toping?
A)	Klassitsizm, sentimentalizm, tanqidiy realism, romantizm
B)	Modernizm, didaktik adabiyot, dunyoviy adabiyot, realizm
C)	O`zbek dunyoviy adabiyoti, romantizm, realizm, so`fizm
D)	So`fizm, klassitsizm, realizm, naturalizm
165.	Tugun deb nimaga aytiladi?
A)	Asar sujetida konflikt va harakatning paydo bo`lishi
B)	Asar boshlanishida aks ettiriladigan hodisa

C)	Asar oxirida beriladigan hodisa
D)	Asardagi dastlabki hodisa
166.	Obrazlilik – san'atning ...
A)	Asosiy xususiyati
B)	Badiiy jarayoni
C)	Asosiy jarayoni
D)	Amaliy ko`rinishi
167.	Adabiy tanqidchilar berilgan qatorni ko`rsating?
A)	O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Xudoyberganov
B)	S.Ayniy, Fitrat, Sa'diy, M.Shayxzoda
C)	A.Qayumov, N.Mallaev, O.Hoshim
D)	S.Ahmad, R.Qo`chqor, U.Qo`chqor
168.	... o`tmish adabiyotini (jahon yoki biror milliy adabiyotni) uzluksiz jarayon yoki shu jarayonning bosqichlaridan biri sifatida o`rganadi?
A)	Adabiyot tarixi
B)	Adabiyot nazariyasi
C)	Adabiy tanqid
D)	Matnshunoslik
169.	... o`z oldiga hozirgi adabiy jarayon muammolarini o`rganish, yangi paydo bo`lgan asarlarni (shuningdek, o`tmishda yaratilgan asarlarni ham) bugungi kun nuqtayi nazaridan g`oyaviy-badiiy tahlil qilish va baholashni maqsad qilib qo`yadi?
A)	Adabiy tanqid
B)	Adabiyot tarixi
C)	Adabiyot nazariyasi
D)	Matnshunoslik
170.	.. badiiy adabiyotning mohiyati, adabiyot taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, jamiyat hayotidagi o`rni va vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi kabi masalalarni umumiy tarzda o`rganadi va shu asosda umumiy qonuniyatlarni ochib beradi?
A)	Adabiyot nazariyasi
B)	Adabiy tanqid
C)	Matnshunoslik
D)	Adabiyot tarixi
171.	... – adabiyotshunoslikning operativ, joriy adabiy jarayonga bevosita aralashadigan sohasidir?
A)	Adabiy tanqid
B)	Adabiyot nazariyasi
C)	Adabiyot tarixi
D)	Matnshunoslik
172.	... o`zida adabiyotshunoslik ilmi, badiiy adabiyot va publitsistikaga xos jihatlarni uyg`unlashtiradi?
A)	Adabiy tanqid
B)	Adabiyot tarixi
C)	Adabiyot nazariyasi
D)	Matnshunoslik
173.	Adabiy matnlarni o`rganish va nashrga tayyorlash ...ning vazifasidir?
A)	Matnshunoslik
B)	Manbashunoslik
C)	Bibliografiya

D)	Adabiyot tarixi
174.	Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri sifatida ... adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasiga oid manbalarni izlab topish, tasniflash, ro`yxatga olish kabi amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek, manbalarni qidirish va o`rganish yo`llarini ishlab chiqish bilan shug`ullanadi?
A)	Manbashunoslik
B)	Matnshunoslik
C)	Adabiyot tarixi
D)	Bibliografiya
175.	... adabiyotshunoslikning ilmiy-amaliy sohasi sanalib, adabiyotshunoslikka oid ilmiy asarlar, maqolalar, shuningdek, badiiy asarlar ro`yxatini, bibliografik qo`llanma, ko`rsatkichlar tuzish bilan shug`ullanadi?
A)	Adabiyotshunoslik bibliografiyasi
B)	Matnshunoslik
C)	Manbashunoslik
D)	Adabiyot tarixi
176.	Badiiy adabiyot — insonning ... faoliyati mahsuli?
A)	Ruhiy
B)	Aqliy
C)	Hissiy
D)	Mehnat
177.	Ijtimoiy ong shakllari orasida badiiy ... borliqni badiiy obrazlar vositasida idrok etishi bilan farqlanadi?
A)	Adabiyot va san'at
B)	Mif va adabiyot
C)	Fan
D)	Adabiyot
178.	Badiiy adabiyot shaxslararo, avlodlararo, millatlararo muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi. Bu uning ... funksiyasidir?
A)	Kommunikativ
B)	Tarbiyaviy (didaktik)
C)	Kompensatorlik
D)	Badiiy bashorat
179.	Badiiy adabiyotda inson o`z hayotida ko`rmaganini ko`radi, undan o`ziga yetishmayotgan narsalarni topadi va shu asosda ruhiy qoniqish hosil qiladi. Bu uning ... funksiyasidir?
A)	Kompensatorlik
B)	Bilish (evristik)
C)	Badiiy bashorat
D)	Kommunikativ
180.	Badiiy adabiyot shaxsni aqlan va ruhan kamolga yetkazadi, jamiyatning ma'nan tozarishi va yuksalishiga xizmat qiladi. Bu uning ... funksiyasidir?
A)	Tarbiyaviy (didaktik)
B)	Badiiy bashorat
C)	Kommunikativ
D)	Bilish (evristik)
181.	Badiiy adabiyot dunyoni go`zallik qonunlari asosida qayta yaratadi, uning o`zi tasvirlayotgan narsaga berayotgan bahosi go`zallik va ezgulik mavqeidan turib chiqariladi?

A)	Estetik
B)	Kommunikativ
C)	Tarbiyaviy (didaktik)
D)	Kompensatorlik
182.	... deganda insonning go`zallik qonuniyatlari asosida borliqni o`zlashtirish(va o`zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasi o`laroq vujudga kelgan narsalar jami tushuniladi?
A)	San'at
B)	Amaliy san'at
C)	Badiiy badiiy
D)	Adabiyot
183.	... borliqning badiiy asardagi aksidir?
A)	Badiiy obraz
B)	Obraz
C)	Obrazlilik
D)	Timsol
184.	Badiiy obraz o`zida aql va hisni uyg`un birlashtiradiki, shu bois uni ... sifatida tushuniladi?
A)	Ratsional va emotsional birlik
B)	Individuallashtirilgan umumlashma
C)	Obyektiv va suyektiv
D)	Ruhiy faoliyat mahsuli
185.	Ifoda va tasvir planlari munosabatiga ko`ra badiiy obraz turlari ...
A)	Avtologik, metalogik va superlogik obrazlar
B)	Individual, xarakter va tipik obrazlar
C)	Motiv, topos, arxetip
D)	Avtopsixologik, metalogik va xarakterologik obrazlar
186.	Badiiy obrazning qaysi turlari bir asar doirasida uchrashi mumkin?
A)	Individual, xarakter va tipik obrazlar
B)	Motiv, topos, arxetip
C)	Avtopsixologik, metalogik va xarakterologik obrazlar
D)	Avtologik, metalogik va superlogik obrazlar
187.	Qaysi javobda mazmun unsurlari to`g`ri ko`rsatilgan?
A)	Problema, tema, tendensiya, g`oya
B)	Til, obrazlar sistemasi, syujet, konflikt, kompozitsiya, ritm
C)	Problema, tema, konflikt, g`oya
D)	Obrazlar sistemasi, syujet, konflikt, kompozitsiya
188.	Qaysi javobda shakl unsurlari to`g`ri ko`rsatilgan?
A)	Til, obrazlar sistemasi, syujet, konflikt, kompozitsiya, ritm
B)	Problema, tema, tendensiya, g`oya
C)	Obrazlar sistemasi, syujet, konflikt, problema
D)	Obrazlar sistemasi, syujet, konflikt, kompozitsiya
189.	Mumtoz adabiyotda she'riy unsurlardan qaysi biri arabcha «otning orqasiga mingashib, ergashib boruvchi» ma'nosini bildiradi?
A)	Radif
B)	O`xshatish
C)	Jonlantirish
D)	Qofiya

190.	Badiiy obrazning qaysi turlari adabiy-madaniy an'anaga ko`ra muayyan turg`un shaklga aylanib, asardan asarga ko`chib yurish xususiyatiga ega?
A)	Motiv, topos, arxetip
B)	Individual, xarakter va tipik obrazlar
C)	Avtologik, metalogik va superlogik obrazlar
D)	Avtopsixologik, metalogik va xarakterologik obrazlar
191.	... deyilganda inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo`lgan turg`un "sxema"lar, konstruksiyalar, qoliplar tushunilib, ularning izlarini eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi adabiyotgacha ko`rish mumkin bo`ladi?
A)	Arxetip
B)	Motiv
C)	Topos
D)	Tipik obraz
192.	... umuman milliy madaniyatda, katta bir adabiy davr mobaynida takrorlanuvchi obraz sanaladi?
A)	Topos
B)	Motiv
C)	Arxetip
D)	Xarakter
193.	... shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg`unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir?
A)	Motiv
B)	Xarakter
C)	Arxetip
D)	Topos
194.	Badiiy obrazning ko`p ma'noliligi, badiiy voqelik muallif tomonidan anglangan mohiyatning badiiy modeli ekanligi va bu modelning muallif ko`rganidan o`zgacha hayotiy holatlarga ham ko`pincha mos tushishi mazmunning ...ni ta'minlovchi omildir?
A)	Universalligi
B)	Originallik
C)	Hayotiyliigi
D)	Salmoqdorligi
195.	Mazmunning ... deyilganda uning muhimligi, umumbashariy muhimligi nazarda tutiladi?
A)	Salmoqdorligi
B)	Hayotiyliigi
C)	Originallik
D)	Universalligi
196.	... badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog`liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi?
A)	Sujet
B)	Fabula
C)	Kompozitsiya
D)	Konfilikt
197.	... badiiy asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishga xizmat qiladi?
A)	Sujet



B)	Fabula
C)	Kompozitsiya
D)	Konflikt
198.	... asar voqealarining boshlanishiga turtki bo`lgan voqea, asar konflikti qo`yilgan joydir?
A)	Tugun
B)	Yechim
C)	Voqea rivoji
D)	Ekspozitsiya
199.	... sujet voqealari rivojining yakuni, ularning nihoyasida qahramonlar ruhiyatida, taqdirida yuzaga kelgan holatdir?
A)	Yechim
B)	Prolog
C)	Epilog
D)	Ekspozitsiya
200.	... sujetning boshlanish qismi bo`lib, o`quvchini asar voqealari kechadigan joy, qahramonlar, asar konflikti yetilgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi?
A)	Ekspozitsiya
B)	Yechim
C)	Voqea rivoji
D)	Tugun

### 3. TILSHUNOSLIK NAZARIYASI fan bo'yicha:

№	TEST SAVOLLAR
1	Tilshunoslik nazariyasining vazifasini ko'rsating.
A)	til qonuniyatlarini aniqlaydi, tillarni tekshirish usullarini yaratadi
B)	muayyan bir tilni o'rganadi
C)	ayrim tillarni o'rganadi
D)	Tilshunoslik metodlarini o'rganadi
...	
2	Tilni tafakkurga bog'liq tarzda o'rganadigan fan qaysi?
A)	mantiq
B)	falsafa
C)	psixologiya
D)	Sotsiologiya
...	
3	Nol morfema tushunchasini tilshunoslikka kim olib kirdi?
A)	qadimgi hind tilshunoslari
B)	qadimgi grek tilshunoslari
C)	qadimgi Rim tilshunoslari
D)	qadimgi Xitoy tilshunoslari
4	Qaysi undosh tovush lablar bir-biriga yaqinlashganda, oradagi tirqishdan sirg'alib chiqadi?
A)	v
B)	d
C)	s
D)	p
5	O'rta osiyolik qaysi mutafakkirning bilish haqidagi qarashlari V.Gumboldt fikrlariga hamohang?
A)	Forobiy
B)	Beruniy
C)	Ibn Sino

D)	al-Kindiy
6	Forobiy fikricha, soʻz maʼnolari necha xil va ular qaysilar?
A)	2 xil: sodda, murakkab
B)	2 xil: atoqli, turdosh
C)	3 xil: atoqli, turdosh, umumiy
D)	2 xil: oraz va javhar
7	Qaysi Oʻrta Osiyo olimi korrelyativ undoshlarni ajratgan?
A)	Ibn Sino
B)	Zamaxshariy
C)	Forobiy
D)	Navoiy
8	Qorishiq undosh tovushlar berilgan qatorni toping.
A)	ch, j(dj)
B)	j, sh, f,
C)	ng, r, l
D)	m, n, ng
9	Boduen de Kurtenening “Tilshunoslikka kirish” asarida qaysi atama inson psixikasida barqaror mavjud boʻlgan tovush tasavvuri, soʻzlovchi ongida yashovchi model sifatida izohlanadi?
A)	fonema
B)	allofon
C)	grafema
D)	Harf
10	F. de Sossyur “Umumiy tilshunoslik” kursida qaysi masalalarga eʼtibor qaratadi?
A)	til va nutq, tilning belgilik tabiati, sinxroniya va diaxroniya, sistema va element
B)	sinxroniya va diaxroniya
C)	sistema va element
D)	tilning belgilik tabiati
11	Praga lingvistik maktabining muhim xususiyati nimadan iborat?
A)	funksionallik va strukturlik
B)	funksionallik
C)	strukturlik
D)	Sistemaviylik
12	Turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma-xilligini oʻrganuvchi fonetik boʻlim.
A)	Umumiy fonetika
B)	Tavsifiy fonetika
C)	Eksperimental fonetika
D)	Tarixiy fonetika
13	“Chigʻatoy gurungi” toʻgaragining rahbari kim edi?
A)	A.Fitrat
B)	A.Choʻlpon
C)	A.Zohiriy
D)	M. Behbudiy
14	Fitratning “Oʻzbek tili qoidalari toʻgʻrisida bir tajriba” asarining ahamiyati nimada?
A)	sharq va gʻarb anʼanalarini uygʻunlashtirgan, dastlabki grammatik qoidalarni yaratgan
B)	til tarixini chuqurlashtirgan
C)	sharq va gʻarb anʼanalarini uygʻunlashtirgan

D)	dastlabki grammatik qoidalarni yaratgan
15	Sotsial axborotning qanday ifodalovchilari belgi hisoblanadi?
A)	moddiy
B)	yozma
C)	ma'noli
D)	har qanday
16	F. de Sossyur lingvistik belgining eng muhim ahamiyatga molik xususiyati sifatida uning qanday o'ziga xosligini ko'rsatadi?
A)	Erkinlik, ifodalovchining ketma-ketligi
B)	butun va bo'lak zidlanishi
C)	erkinlik
D)	ifodalovchining ketma-ketligi
17	Qaysi so'z talaffuz qilinganda, undagi ikki o'xshash tovushdan biri noo'xshash tovushga almashishi mumkin?
A)	zarur
B)	bojxona
C)	yigitcha
D)	tuzsiz
18	Paradigmatik va sintagmatik munosabat qanday munosabat turi hisoblanadi?
A)	bir sath doirasidagi munosabat
B)	ifodalovchi munosabat
C)	leksik munosabat
D)	morfologik munosabat
19	Qo'shimcha qo'shilishi natijasida o'zagida tovush tushishi yuz bergan so'zlarni toping
A)	o'mi, ulg'ay
B)	xatoying, pasay
C)	ayrim, aldov
D)	so'rog'im, o'rtog'im
20	1 tushunchasi qachon maydonga keldi?
A)	XX asrning 50-yillarida
B)	XX asrning 30-yillarida
C)	XIX asrning 80-yillarida
D)	XX asr boshlarida
21	Quyidagi qaysi atama "fanning tadqiqot usullari haqida ta'limot" ma'nosida ishlatiladi?
A)	metodologiya
B)	metod
C)	metodika
D)	pedagogika
22	Tilshunoslikning qaysi metodi boshqa barcha metodlar uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi?
A)	tavsifiy metod
B)	struktur metod
C)	qiyosiy-tarixiy metod
D)	transformatsiya metodi
23	Funksional lingvistika, glossematika va deskriptiv lingvistika tilshunoslikning qaysi metodi yo'nalishlari sanaladi?
A)	struktur metod

B)	tavsifiy metod
C)	transformatsiya metodi
D)	qiyosiy-tarixiy metod
24	Badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini qaysi soha o'rganadi?
A)	lingvopoetika
B)	etnolingvistika
C)	leksikografiya
D)	tekstologiya
25	Etnolingvistika rivojining dastlabki davrlarida qaysi til guruhlarining genetik qarindoshligini aniqlash masalasi eng muhim muammo sifatida qaraldi?
A)	Amerika induslari tillarining
B)	roman-german tillarining
C)	g'arbiy slavyan tillarining
D)	g'arbiy slavyan tillarining
26	Tavsifiy metod fonologik sistema birliklaridan tortib butun lgacha bo'lgan barcha til hodisalarini qanday hodisa deb qaraydi?
A)	shartlashgan, ijtimoiy
B)	shartlashmagan
C)	shartlashgan
D)	ijtimoiy
27	Til sistemasi barcha ijtimoiy hodisalar ichida qanday xususiyati bilan ajralib turadi?
A)	eng yopiq
B)	eng o'zgaruvchan
C)	eng o'zgarmas
D)	eng ochiq
28	Jamiyat lisoniy hayotiga ilmiy texnika revolyusiyasi ta'sirining xarakteri, tempi, ko'lami kabilarni qaysi soha o'rganadi?
A)	sotsiolingvistika
B)	strukturalizm
C)	mentalingvistika
D)	madaniyatshunoslik
29	Bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o'zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik ..... sanaladi.
A)	Sistema
B)	Maydon
C)	Paradigma
D)	Butunlik
30	Tilning <i>kommunikativ, kummulyativ, ekspressiv</i> funksiyasi qaysi nuqtai nazardan olingan?
A)	Vazifasi nuqtai nazaridan
B)	Qurilish mexanizmi nuqtai nazaridan
C)	Semiotik nuqtai nazaridan
D)	Axborot uzatish nazariyasi nuqtai nazaridan
31	Monema atamasini fanga kim olib kirgan?
A)	A. Martine
B)	Ufimtseva
C)	Novikov

D)	Kurtene
32	Til ichki bo'linishining eng oxirgi nuqtasi shakliy tomondan ... bilan yakunlanadi.
A)	fonema
B)	grammema
C)	leksema
D)	morfema
33	Til ichki bo'linishining eng oxirgi nuqtasi mazmuniy tomondan ... bilan yakunlanadi
A)	sema
B)	fonema
C)	grammema
D)	leksema
34	So'zlarning kelib chiqish masalalari, so'zning genetik ma'nosi, asl ma'nosi, so'zning ichki ma'nosi bilan shug'ullanadigan bo'lim?
A)	Etimologiya
B)	Frazeologiya
C)	Leksikologiya
D)	Fonologiya
35	Sossyur ta'limotida qanday masala markaziy o'rinni egallaydi?
A)	lingvistik belgi
B)	pog'onaviylik
C)	umumiy g'oya
D)	sistema
36	Nimaning ta'sirida belgi muammosiga qiziqish yanada ortdi?
A)	Strukturalizmning muvaffaqiyati, Semiotika fanining rivojlanishi
B)	Lingvistikaning o'zgarishi
C)	Semiotika fanining rivojlanishi
D)	Strukturalizmning muvaffaqiyati
37	Belgining moddiy asosi sifatida nimalar belgilanadi?
A)	tovush (akustik), ko'rish (optik), maza (gustator)
B)	ko'rish (optik)
C)	maza (gustator)
D)	tovush (akustik)
38	Belgi orqali ifodalangan ob'ekt qanday terminlar bilan nomlanadi?
A)	denotat, referent
B)	tovush
C)	denotat
D)	referent
39	Belgilarning tuzilishi haqida monoliteralistik qarashda nima e'tiborga olinadi?
A)	faqat ifodalovchi, belgi ma'noga ishora qiladi
B)	faqat ifodalanmish
C)	ifodalovchi va ifodalanmish birligi
D)	belgi ma'noga ishora qiladi
40	Fonetikaning obykti?
A)	Tilning tovush tomoni, fonetik qurilishi
B)	Tilning ma'no tomoni
C)	Fonema

D)	Bo'gin va uning amaliy ahamiyati
41	Belgiga biryoqlama mohiyat sifatida yondashuvchilar in'ikos jarayonini qaysi bosqichlardan iborat deb hisoblaydilar?
A)	Narsa, narsa belgilarining umumlashmasi, narsa obrazi (tushuncha)
B)	Munosabat (ma'no)
C)	narsa belgilarining umumlashmasi
D)	narsa obrazi (tushuncha)
42	Belgiga ikki yoqlama mohiyat sifatida yondashuvchilar in'ikos jarayonini qaysi bosqichlardan iborat deb hisoblaydilar?
A)	narsa, tushuncha, munosabat (ma'no), ifodalovchi
B)	Narsa
C)	Tushuncha
D)	Munosabat (ma'no)
43	Til-nutq dixotomiyasini kim lingvistik sistemasining markaziga aylantirdi?
A)	F.de Sossyur
B)	V.Gumboldt
C)	Yosh grammatikachilar maktabi nomoyandalari
D)	I.A.Boduen de Kurtene
44	Fonologik sathda umumiylik va xususiylik dialektikasi nimalar orqali namoyon bo'ladi?
A)	fonema va uning variantlari (ottenkalari)
B)	Morfema va uning variantlari
C)	Leksema va uning variantlari
D)	Grammema va uning variantlari
45	Morfemani moddiyilashiruvchi variantlar uchun qanday atamalardan foydalaniladi?
A)	morf, morfema variantlari, allomorf
B)	Allomorf
C)	Morfema variantlari
D)	submorf
46	Fonetikaning maqsadi?
A)	Fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik asoslarini o'rganish, ularning til mexanizmidagi ro'lini aniqlash.
B)	Fonetik birliklarni boshqa birliklardan ajratish
C)	Fonetik birliklarning o'zaro munosabatlarini o'rganish
D)	Fonetik birliklarni farqlash
47	Sistemaviy-struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi nimalarni ilmiy asoslab berdi?
A)	Til ichki tuzilishining o'ziga xos xususiyatini
B)	fan metodologiyasini
C)	til sathlarin
D)	tilning vazmfalarini
48	Bir sathga mansub bo'lgan, qimmat jihatdan bir xil birliklarning ma'lum umumiy belgi asosida bir guruhga (uyaga) birlashuvi....
A)	paradigmatik munosabat sanaladi
B)	sintagmatik munosabat sanaladi
C)	pog'onaviy munosabat sanaladi
D)	Ierarxik munosabat
49	Paradigma a'zolarining o'zaro zidlanishi uchun nima asos bo'ladi?

A)	farqlovchi belgi
B)	birlashtiruvchi belgi
C)	chegara belgi
D)	markaziy belgi
50	N.S.Trubetskoy fonologik sathda zidlanishlarni qaysi belgilarga ko'ra tasnif etadi?
A)	zidlanish sistemasiga munosabatiga ko'ra, zidlanuvchi a'zolar o'rtasidagi munosabatga ko'ra, zidlanuvchi a'zolarning ma'no farqlash kuchiga ko'ra
B)	Zidlanish sistemasiga munosabatiga ko'ra
C)	Zidlanuvchi a'zolar o'rtasidagi munosabatga ko'ra
D)	Zidlanuvchi a'zolarning ma'no farqlash kuchiga ko'ra
51	O'xshash shakl atamasi tilshunoslikda qaysi hodisani anglatadi?
A)	izomorfizm
B)	neytralizatsiya
C)	paradigmatika
D)	sintagmatika
52	Quyi sath birliklarida qo'llanilgan tekshirish metodining yuqori sath birliklariga qo'llanilishi ... sanaladi.
A)	izomorfizm
B)	neytralizatsiya
C)	paradigmatika
D)	sintagmatika
53	<i>Fonema</i> termini tilshunoslikka ... tomonidan kiritildi.
A)	Boduen de Kurtene
B)	Krushevskiy
C)	Koshg'ariy
D)	Elmslev
54	Kombinatsion tobelik munosabati natijasida hosil bo'lgan kombinatsion o'zgarish nima deyiladi?
A)	divergensiya
B)	neytralizatsiya
C)	kogerensiya
D)	kategoriya
55	Fonema ottenkalari haqidagi ta'limot qaerda yaratildi?
A)	Leningrad fonologik maktabida
B)	Qozon lingvistik maktabida
C)	Moskva lingvistik maktabida
D)	Praga lingvistik maktabida
56	Kimlarning ta'limotlarida "morfema" atamasi faqat so'z qismlarinigina emas, balki so'zlarni ham qamrab oladi?
A)	Deskriptivistlar
B)	Fonologistlar
C)	Yosh grammatikachilar
D)	Glossematiklar
57	Grammatik morfema leksik morfemaga qo'shilishi va grammatikalizatsiya darajasiga ko'ra ...
A)	affiks morfemalarga bo'linadi, yordamchi morfemalarga bo'linadi
B)	leksik morfemalarga bo'linadi
C)	grammatik morfemalarga bo'linadi
D)	derevatsion morfemalarga bo'linadi

58	Leksik morfema bilan grammatik morfemalar atash ma'nosining borligi yoki yo'qligi jihatidan qanday oppozitsiyaga kirishadi?
A)	Privativ
B)	Ekvipolent
C)	gradual
D)	Oppozitsiyaga kirishmaydi
59	Tilning fonologik tizimida korrelyatsiya hodisasi borligini aniqlagan olimlardan biri, bizning yurtdoshimiz?
A)	Abu Ali Ibn Sino
B)	Beruniy
C)	Bobur
D)	M.Zamaxshariy
60	<i>Ammo, lekin, uchun</i> ifodalari so'zmi yoki leksemani?
A)	So'z
B)	Leksema
C)	Ham leksema, ham so'z
D)	Belgi
61	Turli kategoriyalardagi tovushlarning , masalan, unli bilan undoshning o'zaro ta'siri tufayli yuzaga keladigan moslashuv?
A)	Akkomadatsiya
B)	Geminatsiya
C)	Assimilyatsiya
D)	Tovush ikkilanishi
62	So'z semantik tuzilishida qaysi elementlar ishtirok etadi?
A)	Narsa, ma'no va belgi
B)	Ma'no va tushuncha
C)	Narsa, tushuncha va belgi
D)	Ma'no va narsa
63	Maydon gomogen hodisami yoki geterogen hodisami?
A)	Geterogen hodisa
B)	Gomogen hodisa
C)	Umumlashgan hodisa
D)	ham Geterogen, ham Gomogen hodisa
64	Verbotsentrik nazariyada qaysi birlik asosiy sanaladi?
A)	So'z
B)	Fonema
C)	Frazeologik birlik
D)	Leksema
65	Tilshunoslik tarixida so'zning til ontologiyasidagi o'rni masalasida qanday yo'nalish maydonga keldi?
A)	Verbotsentrik, morfotsentrik
B)	morfotsentrik
C)	Sistemaviy
D)	Verbotsentrik
66	Narsa va hodisalarni nomlash nuqtai nazaridan ismlar qanday bo'linadi?



A)	Birlamchi nomlar (narsa otlari, belgi otlari, miqdor otlari) va fe'llar, Ikkilamchi nomlar. Atoqli otlar (antroponim, toponim, gidronim, oronim va h.k.) va olmoshlar kiradi.
B)	Uchlamchi nomlar. (Faqat atoqli otlar)
C)	Birlamchi nomlar (narsa otlari, belgi otlari, miqdor otlari) va fe'llar.
D)	Ikkilamchi nomlar. Atoqli otlar (antroponim, toponim, gidronim, oronim va h.k.) va olmoshlar kiradi.
67	Predikativlik qanday xususiyatga ega?
A)	tasdiq, inkor, modallik, zamon va shaxs-son
B)	Zamon va shaxs-son
C)	Modallik
D)	Inkor
68	Gap bo'laklari konsepsiyasida atributiv logika ta'siridagi tilshunoslar ...
A)	Ega va kesimni hokim bo'lak deb hisoblaydilar
B)	Kesimni hokim bo'lak deb hisoblaydilar
C)	Egani hokim bo'lak deb hisoblaydilar
D)	To'ldiruvchi va holni hokim bo'lak deb hisoblaydilar
69	Gap bo'laklari konsepsiyasida munosabat logikasi ta'siridagi tilshunoslar ...
A)	Kesimni hokim bo'lak deb hisoblaydilar
B)	Egani hokim bo'lak deb hisoblaydilar
C)	Ega va kesimni hokim bo'lak deb hisoblaydilar
D)	To'ldiruvchi va holni hokim bo'lak deb hisoblaydilar
70	Tilshunoslikda gap bo'laklarining o'zaro munosabatiga ko'ra gapning ... vujudga keldi?
A)	bir cho'qqili nazariya, ikki cho'qqili nazariya
B)	Uch cho'qqili nazariya
C)	Bir cho'qqili nazariya
D)	Ikki cho'qqili nazariya
71	Gapning semantik tuzilishi qanday uzvlardan iborat?
A)	Propozitiv, Modal, Kommunikativ
B)	Kommunikativ
C)	Modal
D)	Propozitiv
72	Lug'at turlarining qaysi birida davlat so'zi "Davlat – jamiyatni qonun kuchi bilan boshqaruvchi tashkilot" tarzida ifodalanishi mumkin?
A)	izohli lug'atda
B)	tarjima lug'atida
C)	sinonim (ma'nodosh) so'zlar lug'atida
D)	imlo lug'atida
73	Bilishning falsafiy metodining muayyan fan doirasida o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatlaridan kelib chiqqan holda konkret qo'llanilishi ... sanaladi
A)	Fan metodologiyasi
B)	Falsafiy metod
C)	Tafakkur metodi
D)	Bilish metodi
74	Ob'ektni bevosita sezgi a'zolari bergan ma'lumotga asoslanib o'rganadi. Bu qanday metod?
A)	Tavsifiy metod
B)	Qiyosiy-tarixiy metod
C)	Chog'ishtirma metod

D)	Struktur metod
75	Turli sistemadagi tillar asosida ish olib boriladi va uning natijasida tipologik kategoriyalar aniqlanadi.
A)	Chog'ishtirma metod
B)	Qiyosiy-tarixiy metod
C)	Tavsifiy metod
D)	Struktur metod
76	Gapning ichki va tashqi strukturasi va bu struktura birliklarining o'zaro munosabatiga tayanuvchi metod qaysi?
A)	Transformatsiya metodi
B)	Struktur metod
C)	Chog'ishtirma metod
D)	Qiyosiy-tarixiy metod
77	Glossematikaning asosiy tamoyillari kimning asarlarida bayon etilgan?
A)	El'mslev
B)	Gumboldt
C)	Sossyur
D)	Paul
78	Diskriptiv lingvistika kimlar nomi bilan bog'liq?
A)	Sepir, Blumfild, Boas
B)	Sossyur, Elmslev, Kurtene
C)	Sossyur, Baos, Elmslev
D)	Brendal, Boas, Elmslev
79	Qaysi ibora <u>to'g'ri yur, to'g'ri bo'l, to'g'ri ish qil</u> ma'nolarida barobar ishlatilaveradi?
A)	O'zingga qara
B)	ko'ni bo'l
C)	ko'ni yur
D)	kuchingga qara
80	Sepir qanday munosabatlarga alohida e'tibor qaratadi?
A)	Til va madaniyat
B)	Til va tafakkur
C)	Belgi va predmet
D)	Tafakkur va belgi
81	O'zbek (turkiy) tili o'z ichki imkoniyatlari bilan qay yo'sinda boyib boradi?
A)	so'z yasash va shevadan so'z olish
B)	boshqa tillardan so'z olish
C)	so'z o'zlashtirish
D)	kalkalash
82	Blumfild ma'lum qoidalar asosida tashkil topgan morfemalar ketma-ketligi sifatida qaysi birlikni belgilaydi?
A)	gap
B)	morfema
C)	fonema
D)	So'z
83	Segmentatsiya, substitutsiya tushunchalari qaysi metodga aloqador?
A)	Distributiv tahlil

B)	Chog'ishtirma
C)	Qiyosiy-tarixiy
D)	Tavsifiy
84	“Elementlar qo'shnichiligi” atamasi qaysi metodda o'rganiladi?
A)	Distributiv tahlil
B)	Qiyosiy-tarixiy
C)	Tavsifiy
D)	Chog'ishtirma
85	Distrubutsiya modellarining qaysi turlari belgilanadi?
A)	kontrast distributsiya, qo'shimcha distributsiya, erkin almashinish distributsiyasi
B)	Erkin almashinish distributsiyasi
C)	Qo'shimcha distributsiya
D)	Kontrast distributsiya
86	Bevosita ishtirokchilar (BI) metodida tayanch nuqta ... hisoblanadi.
A)	Konstruksiya
B)	So'z
C)	Leksema
D)	Morfema
87	Leksik sathning birligi qaysi?
A)	leksema
B)	sema
C)	fonema
D)	arxisema
88	Semasiologiya qaysi bo'lim tarkibiga kiradi?
A)	semiotika
B)	grammatika
C)	morfologiya
D)	leksikologiya
89	Pragmatika nima?
A)	amaliy tilshunoslik
B)	umumiy tilshunoslik
C)	nazariy tilshunoslik
D)	tarixiy tilshunoslik
90	Leksikologiyaning nutqni obrazli ifodalashga xizmat qiluvchi bo'limi?
A)	frazeologiya
B)	etimologiya
C)	dialektologiya
D)	Semasiologiya
91	Quyidagi qaysi fikr noto'g'ri?
A)	so'zning material tomoni mazmuni hisoblanadi
B)	xususiylik nutq birliklari uchun xos
C)	leks nutq birligi hisoblanadi
D)	so'z ikki tomonlama birlikdir
92	Nutq tovushlarining qaysi aspektini ba'zi adabiyotlarda ijtimoiy-sotsial aspekt deb ham uchratishimiz mumkin?
A)	fonologik

B)	akustik va artikulyatsion
C)	artikulyatsion
D)	akustik
93	Qanday belgilar jamiyat tomonidan qabul qilinadi?
A)	ramziy belgilar
B)	indeks belgilar
C)	sanam belgilar
D)	Ijtimoiy
94	Nutq birligiga xos bo'lgan arxaik so'zni toping.
A)	juzv
B)	zot
C)	mohiyat
D)	Kull
95	Narsa, belgi, harakat kabilarning kishi ongidagi umumiy in'ikosi nima?
A)	tushuncha
B)	grammatik ma'no
C)	leksik ma'no
D)	so'z
96	Yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo'lgan so'zlar?
A)	omofon
B)	omonim
C)	omograf
D)	Paronim
97	Denotativ ma'no?
A)	so'z haqidagi tushuncha
B)	so'zning ma'no tomoni
C)	so'zning ko'chma ma'nosi
D)	so'zning borliqdagi o'z ma'nosi
98	Quyidagi hodisalarning qaysi biri „qayta nomlash“ ma'nosini bildiradi?
A)	metonimiya
B)	sinekdoxa
C)	metafora
D)	Funksiyadoshlik
99	Nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi tasviriy ifodalar asosan qaysi so'z turkumlari doirasida keng qo'llanadi?
A)	sifat
B)	fe'l
C)	ot
D)	olmosh
100	Fitratning talqinicha so'z - bu...
A)	ma'no anglatuvchi tovushlar to'dasi
B)	tovush ma'nosida ifodalangan tushuncha
C)	borliqdagi hodisa va narsalarning ma'nosini ifoda etuvchi til birligi
D)	tovush qobig'iga ega birlik
101	Quyidagi fikrlarning qaysi biri to'g'ri?
A)	ma'no va tushuncha bir-biri bilan teng

B)	ma'no tushunchaga nisbatan torroq
C)	ma'no tushunchaga nisbatan kengroq
D)	ma'no tushunchaning o'zidir
102	So'z o'rtasida 2 ta unli qator kelganda birini tushib qolishiga nima deyiladi?
A)	sinerezis
B)	epenteza
C)	eliziya
D)	Reduksiya
103	Aka leksemasining arxisemasi qaysi?
A)	shaxs
B)	erkak
C)	tug'ishgan
D)	katta
104	O'zbek leksikografiyasida quyidagi lug'atlardan qaysisi hali yaratilmagan?
A)	"O'zbek tilining morfem lug'ati"
B)	"O'zbek tilining izohli etnografik lug'ati"
C)	"O'zbek ismlari ma'nosi lug'ati"
D)	"O'zbek tilining imlo lug'ati"
105	Qaysi qatordagi ibora juda uzoq, keng ma'nosida ishlatiladi?
A)	ko'z ilg'amas
B)	chegara bilmas
C)	tovush yetmas
D)	ko'z to'yimas
106	Faqat sirg'aluvchi undoshlar ishtirok etgan so'zlar qatorini belgilang.
A)	so'z, shox, g'or
B)	jo'ja, soch, qosh
C)	gul, vafo, jirafa
D)	siz, ho'kiz, tuz
107	Onomastika sohasining tarixiy davrlashtirish atamaları bilan bog'liq bo'limi nima deb ataladi?
A)	xrononim
B)	urbonim
C)	gidronim
D)	Teonim
108	Tilshunoslik sohasida o'zbeklar orasidan chiqqan birinchi professor kim?
A)	Fitrat
B)	Nozir Safarov
C)	Abdulla Qodiriy
D)	Sadriddin Ayniy
109	Leksik - frazeologik sinonimni toping
A)	yuvosh - qo'y og'zidan cho'p olmagan
B)	boshi ko'kka yetdi - og'zi qulog'ida
C)	kuldi - jilmaydi
D)	boshida danak chaqmoq - jazolamoq
110	Qanday lug'atlarda rasmlar, karta va sxemalar ham keltiriladi?
A)	ensiklopediyalarda
B)	tarjima lug'atlarida

C)	dialektal lugʻatlarda
D)	izohli lugʻatlarda
111	Soʻzlarning koʻchma maʼnosi?
A)	konnotativ maʼno
B)	denotativ maʼno
C)	mavhum maʼno
D)	uslubiy maʼno
112	k-t fonemalarining farqlovchi belgilari qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?
A)	til orqa, til oldi
B)	jarangli, sirgʻaluvchi
C)	jarangsiz, sirgʻaluvchi
D)	Jarangli, jarangsiz
113	Fonema bilan tovushning farqi nimada?
A)	tovush moddiy birlik, fonema esa umumlashma
B)	tovush abstrakt birlik, fonema esa moddiy birlik
C)	tovush muayyan maʼnoga ega, fonema esa maʼno anglatmaydi
D)	ularning ikkisi bir xil birlik
114	maʼnoga ega boʻlmagan birlikni koʻrsating
A)	fonema
B)	morfema
C)	soʻz
D)	Leksema
115	Grammatik shakl nima?
A)	grammatik maʼnoning moddiy ifodasi
B)	lugʻaviy birlik
C)	grammatik maʼnoga teng birlik
D)	har qanday lingvistik shakl
116	Grammatik shakl nima?
A)	grammatik maʼnoning moddiy ifodasi
B)	lugʻaviy birlik
C)	grammatik maʼnoga teng birlik
D)	har qanday lingvistik shakl
117	Qaysi soʻzlarning kelib chiqishida tildagi tovush oʻzgarishlari, yozuv qoidalari va semantik siljishlar muhim manba boʻladi va ularning maʼnolari kontekstda aniqlanadi?
A)	sinonim
B)	antonim
C)	Paronim
D)	Omonim
118	<i>dumi xurjunda</i> qanday birikma?
A)	ibora
B)	soʻz birikmasi
C)	polisemantik soʻz
D)	monosemantik soʻz
119	Obʼyektiv olam elementlari bilan uning umumlashgan obrazlari oʻrtasidagi munosabat qanday munosabat?
A)	nomlash jarayoni

B)	umumlashtirish jarayoni
C)	ifodalash jarayoni
D)	aks etish jarayoni
120	Qaysi qatordagi soʻzning tasviriy ifodasi notoʻgʻri berilgan?
A)	shoirilar – moʻyqalam sohiblari
B)	makkajoʻxori - dala malikasi
C)	fazogirlar - samo lochinlari
D)	archa - oʻrmon malikasi
121	Nutqning qanday fonetik birliklari bor?
A)	takt, boʻgʻin, fraza, tovush
B)	urgʻu, pauza
C)	soʻz, gap
D)	gap, urgʻu
122	Soʻzlarning kelib chiqishini oʻrganuvchi fan?
A)	etimologiya
B)	etnografiya
C)	Semantika
D)	Semasiologiya
123	Evfemizmning maʼnosi toʻgʻri berilgan javobni toping?
A)	mayin gapirish
B)	toʻgʻri yozish
C)	toʻgʻri talaffuz qilish
D)	toʻgʻri gapirish
124	Quyidagi qaysi birliklarning shakliy ifodasi bilan mazmuni oʻrtasida bogʻliqlik yoʻq?
A)	ibora
B)	tasviriy ifoda
C)	ibora va tasviriy ifoda
D)	soʻz birikmasi
125	Soʻzning har xil boʻgʻinlariga tushuvchi urgʻu qanday nomlanadi?
A)	erkin urgʻu
B)	turgʻun urgʻu
C)	melodik urgʻu
D)	dinamik urgʻu
126	Qoʻllanishi maʼlum bir territoriya bilan chegaralangan soʻzlar qanday nomlanadi?
A)	dialektizmlar
B)	neytral soʻzlar
C)	Terminlar
D)	arxaizmlar
127	Labiodental fonemalarni aniqlang
A)	v, f
B)	b, p
C)	v, m
D)	y, k
128	Qaysi taʼrif sinonimlarga xos?
A)	Bir tushuncha doirasidagi turli maʼno qirralarini anglatuvchi soʻzlar
B)	Shakli bir xil, maʼnosi har xil soʻzlar

C)	Zid ma'noli so'zlar
D)	Aytilishi va ma'nosi bir xil so'zlar
129	Madaniyat, san'at so'zlari o'zbek tiliga qaysi tildan o'zlashgan?
A)	arab tilidan
B)	fors tilidan
C)	tojik tilidan
D)	urdu tilidan
130	Imkoniyat tushunchasi nimaga tegishli?
A)	tilga
B)	nutqqa
C)	Mantiqqa
D)	fanda bunday tushuncha mavjud emas
131	Tilning nomlash, ifodalash, ko'rsatish uchun xizmat qiladigan mavhum birligi nima?
A)	leksema
B)	fonema
C)	Morfema
D)	grammema
132	"Yoqa" so'zi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'z?
A)	ko'p ma'noli so'z
B)	paronim so'z
C)	omonim so'z
D)	sinonim so'z
133	O'zaro qarindosh bo'lgan tillarni o'rganuvchi fonetikaning bo'limi nima deyiladi?
A)	qiyosiy fonetika
B)	tasviriy fonetika
C)	chog'ishtirma fonetika
D)	eksperimental fonetika
134	Qaysi qatorda ushbu CCVCC struktura bo'yicha so'zlar berilgan?
A)	sport, lyuks
B)	oblast, ekspress
C)	robot, nola
D)	shtanga, traktor
135	Muayyan sohaga qaratilgan bilimlar majmuasi nima deyiladi?
A)	fan
B)	yo'nalish
C)	Fonetika
D)	Tilshunoslik
136	Amr - farmon - buyruq sinonimik qatori qaysi yo'l bilan hosil bo'lgan?
A)	Eskirgan va yangi so'zlar hisobiga
B)	Turli shevalardagi so'zlarning adabiy tilga o'tishi natijasida
C)	So'zlarning ijobiy va salbiy bo'yoq kasb qilishi natijasida
D)	Boshqa tillardan so'z o'zlashtirilishi natijasida
137	Odat - udum - taomil - urf - rasm so'zlari shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar?
A)	sinonim so'zlar
B)	omonim so'zlar
C)	zid ma'noli so'zlar



D)	shakli oxshash soʻzlar
138	Manglaying oq boʻlsin, yarqiroq boʻlsin misrasi birinchi soʻzining doimiy sinonimini toping
A)	Toleying
B)	Iqboling
C)	Yoʻllaring
D)	Peshonang
139	Ochiq boʻgʻin deb ... boʻgʻinga aytiladi
A)	unli tovush bilan tugagan
B)	undoshtovush bilan boshlangan
C)	unli tovush bilan boshlangan
D)	sonor bilan boshlangan
140	Nutqdan tashqarida hech qanday zid maʼno anglatmay, faqat matnning oʻzida antonimlik hosil qiladigan antonimlar... antonimlardir.
A)	kontekstual
B)	oʻzakdosh
C)	Fiziologik
D)	lugʻaviy
141	Hozirgi oʻzbek tilida fonetik jihatdan qayerning shevasi asos qilib olingan?
A)	Toshkent
B)	Samarqand
C)	Xorazm
D)	Fargʻona
142	Paronim soʻzlarni toping.
A)	Jodi-jodu
B)	Bemaʼnilik-bemaʼnolik
C)	Abadiy, mangu
D)	Katta-kichik
143	Logografik yozuv yana qanday nom bilan ataladi?
A)	ideografik yozuv
B)	idiomatik yozuv
C)	muqaddas yozuv
D)	iyeroglifik yozuv
144	Fleksiya nima?
A)	lotincha egish, bukish, oʻzakka qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida oʻzakning oʻzgarishi
B)	soʻz asosi oʻzgarmagan holda yangi soʻz yoki soʻz shakli hosil boʻlishi
C)	ikki yoki undan ortiq til birligining oʻzaro bogʻliqligi
D)	soʻzlarning kelib chiqishini
145	Oʻzlashma soʻzlar lugʻati qanday lugʻat?
A)	izohli lugʻat
B)	maxsus lugʻat
C)	imlo lugʻati
D)	Ensiklopedik lugʻat
146	“Jayb”soʻzi qanday soʻz?
A)	arxaizm
B)	jargon
C)	Argo

D)	varvar soʻz
147	Kontekstual sinonimlar deb qanday sinonimlarga aytiladi
A)	nutq va kontekstda maʼnolari jihatdan bir-birining oʻrnida ishlatilishi oluvchi sinonimlar, bir-biriga aslida sinonim boʻlmasa-da, bir matn doirasida bir maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladigan sinonimlar
B)	oʻzaro uslubiy boʻyoq jihatdan farqlanuvchi sinonimlar
C)	maʼno oʻtishlari va uslubiy boʻyoqdorligi bilan farq qiluvchi sinonimlar
D)	bir-biriga aslida sinonim boʻlmasa-da, bir matn doirasida bir maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladigan sinonimlar
148	Quyidagi gapda qoʻllangan oʻrin-payt kelishigidagi oʻtning maonosini aniqlang. SHu-shu Anora har kuni avtobusda ishga qatnaydi.
A)	*Vosita
B)	payt
C)	oʻrin
D)	atash
149	Qaysi qatorda <u>oy</u> soʻzi ot turkumiga xos sintaktik vazifani bajargan?
A)	Oy osmon dengizida suzib bormokda
B)	Uydan oy yuzli qiz chiqib keldi
C)	Oy borib, omon kel oʻgʻlim!
D)	Qizaloq yarim tishini koʻrsatdi.
150	Predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurga ishora qiluvchi soʻzlar ...
A)	gumon olmoshlari deyiladi
B)	belgilash olmoshlari deyiladi
C)	soʻroq olmoshlari deyiladi
D)	koʻrsatish olmoshlari deyiladi
151	Tilning eng kichik maʼnoli qismi nima?.
A)	Morfema
B)	fonema
C)	leksema
D)	nomema
152	Morfemalarni oʻrganuvchi tilshunoslikning boʻlimi qaysi?
A)	morfemika
B)	leksikologiya
C)	fonetika
D)	morfologiya
153	Leksik maʼno ifodalay oladigan morfema turini ayting.
A)	yetakchi morfema
B)	koʻmakchi morfema
C)	relyatsion morfema
D)	derivatsion morfema
154	Soʻz yasaliishi uchun asos boʻladigan morfema turi?
A)	yetakchi morfema
B)	koʻmakchi morfema
C)	relyatsion morfema
D)	derivatsion morfema
